

## Payg'ambarlar qissasi: Zamzam qudug'i



19:10 / 15.10.2018 13122

### 13

Bir payt Ismoil chanqab qoldi, onasi unga suv ichirishni xohladi. Lekin suv qayerda? Makkada quduq yo'q edi, Makkada anhor ham yo'q edi. Hojar suv talabida edi. Safodan Marvagacha va Marvadan Safogacha yurar edi. Alloh Hojar va Ismoilga nusrat berdi va ular uchun suv yaratdi. Suv yerdan chiqdi, Ismoil ham ichdi, Hojar ham ichdi, suv ortib qoldi. Bu Zamzam qudug'i edi. Alloh Zamzamga barakot berdi. Bu o'sha insonlar hajga borganida ichadigan va suvini o'z shaharlariga ham olib ketadigan quduqdir. Sen Zamzam suvidan ichganmisan?

### 14 – Ibrohim (a.s.)ning tushlari

Biroz muddatdan so'ng Ibrohim (a.s.) Makkaga qaytib, Ismoil va Hojarni uchratdilar. Ibrohim (a.s.) o'g'illari Ismoilni ko'rib xursand bo'ldilar. Ismoil kichkina bola bo'lib, yugurib, o'ynab yurar va otasi bilan sayr chiqar edi.

Ibrohim (a.s.) Ismoilni juda yaxshi ko'rar edi. Kechalarning birida Ibrohim (a.s.) Ismoilni qurbon qilayotganini tush ko'rdilar. Ibrohim (a.s.) haq payg'ambar edilar, u kishining tushlari ham rost edi. Ibrohim (a.s.) Allohning haliyli edilar, Alloh u kishiga tushda buyurgan narsani amalda qilishni xohladilar.

Ibrohim (a.s.) Ismoilga shunday dedi: **“Men tushimda seni so'yayotganimni ko'rmoqdaman, boqib ko'r, nima deysan?”**.

Ismoil: **“Ey otajon! Senga amr etilganni bajar, inshaalloh, meni sabr qilguvchilardan topursan”** , dedi.

Ibrohim (a.s.) Ismoilni va o'zlari bilan birga pichoq oldilar. Ibrohim (a.s.) Minoga yetganida, Ismoilni qurbon qilishni xohladi. Ismoil yerga (uxlashga yotgandek) yotdi. Ibrohim (a.s.) so'yishni xohladi, pichoqni Ismoilning xalqumiga qo'ydi. Lekin Alloh Uning halili, O'zi buyurgan ishni qiladimi yoki yo'qmi, shuni ko'rishni yaxshi ko'rardi. U Allohni ko'proq yaxshi ko'radimi yoki o'g'linimi? Ibrohim (a.s.) bu imtihondan muvaffaqiyatli o'tdi. Alloh Jabroil (a.s.)ni jannatdan bir qo'chqor bilan yuborib, shunday dedi: Sen buni so'ygin, Ismoilni so'ymagin. Alloh Ibrohim (a.s.)ning qilgan ishini xush ko'rdi va musulmonlarga Qurbon hayitida qurbonlik qilishni buyurdi.

Ibrohim Halilullohga Allohning salavoti va salomlari bo'lsin!

Uning o'g'li Ismoilga ham salavoti va salomlari bo'lsin.

## **15 – Ka'ba**

Ibrohim (a.s.) ketib, so'ng qaytib keldi va Alloh uchun bir uy qurishni xohladi. Uylar ko'p edi, ammo Allohga ibodat qilinadigan uy yo'q edi. Ismoil otasi bilan birga Alloh uchun uy qurishni xohladi. Ibrohim (a.s.) va Ismoil tog'dan tosh tashidilar. Ibrohim (a.s.) Ka'bani o'z qo'li bilan qurar edi. Ismoil ham Ka'bani o'z qo'li bilan qurar edi. Ibrohim (a.s.) Allohni zikr qilib, Unga duo qilar edi. Ismoil ham Allohni zikr qilib, Unga duo qilar edi.

**“Robbimiz, bizdan qabul et, albatta, Sening O'zing eshituvchi, biluvchi Zotsan”**.

Alloh Ibrohim (a.s.) va Ismoildan qabul etdi va Ka'bani barakotli qildi. Biz ham, har namozimizda Ka'baga yuzlanamiz. Musulmonlar haj kunlarida Ka'baga safar

qiladilar, Ka'bani tavof qilib, u yerda namoz o'qiydilar. Alloh Ka'baga barakotlar berdi va Ibrohim (a.s.) va Ismoildan qabul qildi.

Ibrohim (a.s.)ga Allohning salavoti va salomlari bo'lsin!

Ismoilga ham salavoti salomlar bo'lsin!

Muhammad (s.a.v)ga ham Allohning salavoti va salomlar bo'lsin!